



LISONIY HAMJAMIYATNING MULOQOT VOSITALARI. ADABIY TIL. DIALEKT. SOTSIOLEKT. ARGO VA JARGON. JONLI SO‘ZLASHUV TILI.

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

4-kurs talabasi

Yo‘ldosheva Nilufar Jo‘rabek qizi

nilufaryoldosheva712@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek adabiy tilining milliy tilning boshqa shakllaridan (dialektlar, sotsiolektlar, jargon va argolar) farqli o‘ziga xos xususiyatlarini sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qiladi. Maqolada F. P. Filin tomonidan belgilangan adabiy tilning yettita asosiy belgisi, uning birlashtiruvchi, chegaralovchi va nufuzli vazifalari, shuningdek, akademik V. V. Vinogradovning ta’rifi keltirilgan. Adabiy tilning kodlashgan va yarim funksional tarmoq sifatidagi xususiyatlari, funksional uslublari hamda ijtimoiy nufuzliligi ko‘rib chiqilgan.

Tarixiy va ijtimoiy sabablarga ko‘ra shakllangan hududiy va ijtimoiy dialektlarning xususiyatlari, Belikov va Krisinning dialektlarni farqlovchi belgilari, sotsiolekt, jargon va argo tushunchalari o‘rtasidagi farqlar (yashirinlik darajasi bo‘yicha) batafsil yoritilgan. Yoshlar slengi va kasbiy jargonlarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek tilida ularning misollari keltirilgan. O‘zbek tili leksikasining umumiste‘mol va chegaralangan qatlamlari (dialektal, terminologik, jargon va argolar) tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: lisoniy hamjamiyat, adabiy til, dialekt, sotsiolekt, argo, jargon, sleng, koine til, jonli so‘zlashuv tili, lingvistik va sotsiolingvistik xususiyatlar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье на основе социолингвистического подхода анализируются отличительные особенности узбекского литературного языка от других форм национального языка (диалектов, социолектов, жаргонов и арго). Рассматриваются семь основных признаков



литературного языка, выделенных Ф. П. Филиным, его объединительная, разграничительная и престижная функции, а также определение литературного языка, данное академиком В. В. Виноградовым.

Освещены характеристики литературного языка как кодифицированной и полуфункциональной подсистемы, его функциональные стили и социальный престиж. Подробно описаны исторические и социальные причины формирования территориальных и социальных диалектов, признаки диалектов по В. И. Беликову и Л. П. Крысину, различия между социолектом, жаргоном и арго (по степени закрытости). Приведены особенности молодежного сленга и профессиональных жаргонов с примерами из узбекского языка.

Ключевые слова: языковое сообщество, литературный язык, диалект, социолект, арго, жаргон, сленг, койне язык, разговорная речь, лингвистические и социолингвистические особенности.

ANNOTATION: This article provides a sociolinguistic analysis of the distinctive features of the Uzbek literary language in comparison with other forms of the national language, such as dialects, sociolects, jargons, and argots. It examines the seven main characteristics of the literary language identified by F. P. Filin, its unifying, delimiting, and prestigious functions, as well as Academician V. V. Vinogradov's definition of literary language.

The characteristics of the literary language as a codified and semi-functional subsystem, its functional styles, and social prestige are discussed. The article thoroughly covers the historical and social reasons for the formation of territorial and social dialects, the distinguishing features of dialects according to V. I. Belikov and L. P. Krysin, and the differences between sociolect, jargon, and argo based on the degree of secrecy. Specific features of youth slang and professional jargons are highlighted with examples from Uzbek.

Keywords: speech community, literary language, dialect, sociolect, argot, jargon, slang, koine language, spoken language, linguistic and sociolinguistic features.



Kirish. O‘zbek tili – o‘zbek xalqining asosiy milliy boyligi va madaniy merosining eng muhim qismidir. Har qanday milliy til o‘z rivojlanish jarayonida bir necha shakllarga ega bo‘ladi. Bu shakllarning eng yuqori, eng ishlangan va jamiyatning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo‘llaniladigan shakli adabiy tildir. Adabiy til umumxalq tilining eng sayqallangan, grammatik jihatdan to‘g‘ri, me‘yorlashtirilgan va umummajburiy variantidir. U nafaqat oddiy kundalik muloqot vositasi, balki ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, adabiyot va san‘at, diplomatiya, huquqshunoslik, davlat boshqaruvi va ish yuritishning asosiy tilidir. Adabiy tilning asosiy xususiyati shundaki, unda sheva va sodda so‘zlashuvga xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar va grammatik konstruktsiyalar qasddan chetlab o‘tiladi. Bu til milliy tilning boshqa barcha variantlaridan (hududiy dialektlar, ijtimoiy dialektlar, jargonlar, argolar) yuqoriroq ijtimoiy nufuzga ega bo‘lib, xalqning madaniy va intellektual hayotini birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Adabiy tilning ilmiy o‘rganilishi tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar adabiy tilning mohiyati, uning milliy til doirasidagi o‘rni va boshqa til shakllari bilan munosabatini chuqur tadqiq etganlar. Xususan, mashhur rus tilshunosi F. P. Filin rus, polyak, ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqa ko‘plab milliy tillarning adabiy til tajribasini umumlashtirib, adabiy tilga xos yettita asosiy belgini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu belgilar bugungi kunda ham ko‘pgina tillar uchun universal mezon bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiy tilning ilmiy ta‘rifini va uning milliy til doirasidagi o‘rnini belgilashda rus tilshunosligining yetakchi vakillari – F. P. Filin¹ va V. V. Vinogradovning² ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. F. P. Filin ko‘plab milliy tillar (rus, polyak, ingliz, nemis, fransuz, ispan va boshqalar) tajribasini umumlashtirib, adabiy tilga xos yettita belgini ilmiy jihatdan asoslab bergan: silliq shaklga ega bo‘lish (obrabotannost), bir normaga keltirilganlik, barqarorlik (stabilnost), jamiyatning barcha a‘zolari uchun majburiylik, stilistik differensiyalashganlik,

¹ Filin, F. P. Русский язык. Избранные труды. – М.: Наука, 1970

² Vinogradov, V. V. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959



muloqotning barcha jabhalari uchun universallik hamda og‘zaki va yozma shakllarning mavjudligi. Ushbu belgilar bugungi kunda ham adabiy tilni boshqa til variantlaridan farqlashning universal mezoni sifatida qo‘llanilmoqda.

Akademik V. V. Vinogradov adabiy tilni “xalqning (ba‘zan bir necha xalqning) og‘zaki va ko‘pincha yozma shaklda rasmiy hujjatlar yuritishda, maktab ta‘limida, fan, publitsistika, badiiy adabiyot va madaniyatning barcha turlarida qo‘llaniladigan umumiy tili” deb ta‘riflagan. Vinogradovning talqinida adabiy tilning yozma-kitobiy va og‘zaki-so‘zlashuv shakllari bir-biridan farqlanadi va ularning shakllanishi muayyan tarixiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu ta‘rif adabiy tilning kodlashgan (normallashtirilgan) va yarim funksional tarmoq sifatidagi xususiyatlarini ochib beradi.

Dialektlar va sotsiolektlarning ijtimoiy va geografik xususiyatlarini o‘rganishda V. I. Belikov va L. P. Krisinning “Sotsiolingvistika” asari muhim o‘rin tutadi³. Mualliflar hududiy dialektlarni milliy tildan farqlovchi to‘rtta asosiy xususiyatni belgilaganlar:

1. dialekt egalarining ijtimoiy, yosh va qisman jins jihatidan cheklanganligi (asosan qishloq aholisi, kekxa avlod);
2. qo‘llanish doirasining oilaviy va maishiy cheklanganligi;
3. shevalar o‘rtasidagi ta‘sir va dialektlar tizimining o‘zaro aloqalari;
4. adabiy til ta‘sirida dialekt nutqining tenglashtirilishi.

Ushbu ish sotsiolingvistikaning asosiy tamoyillaridan biri – dialektlar mavjudligining geografik (tabiiy masofalar, to‘siqlar) va ijtimoiy-psixologik (“obro‘”, hamfikrlik) sabablarini o‘rganishni ilmiy asoslab beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiy tili milliy til tizimining eng yuqori, eng ishlangan va ijtimoiy jihatdan eng nufuzli shakli hisoblanadi. Adabiy til umumxalq tilining sayqallangan, normallashtirilgan va

³ Belikov, V. I., Krisin, L. P. Социоллингвистика. – М.: Российский государственный гуманитарный университет (РГГУ), 2001.



kodlashgan variantidir. U jamiyatning ilm-fan, ta'lim, adabiyot, diplomatiya, huquqshunoslik va davlat boshqaruvi kabi barcha muhim sohalarida asosiy kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida F. P. Filinning adabiy tilga xos yettita belgisi (silliq shaklga ega bo'lish, bir normaga keltirilganlik, barqarorlik, majburiylik, stilistik differensiyalashganlik, universallik va og'zaki-yozma shakllarning mavjudligi) to'liq tasdiqlangan bo'lib, bu belgilar o'zbek adabiy tiliga ham to'liq xos ekanligi aniqlandi.

Adabiy tilning uchta asosiy vazifasi – birlashtiruvchi, chegaralovchi va nufuzli – zamonaviy o'zbek jamiyatida ham faol namoyon bo'lmoqda. Birlashtiruvchi vazifa turli hududiy sheva va dialektlarda so'zlashuvchi aholi o'rtasidagi tushunmovchilikni bartaraf etishga xizmat qilsa, chegaralovchi vazifa o'zbek tilini boshqa tillardan ajratib turadi. Nufuzli vazifa esa adabiy tilni dialektlar, sodda so'zlashuv, jargon va argolardan ustun qo'yadi⁴. Akademik V. V. Vinogradovning ta'rifi asosida adabiy tilning yozma-kitobiy va og'zaki-so'zlashuv shakllari o'rtasidagi farq ham aniq ko'rinadi: yozma shakl rasmiy va ilmiy uslublarda ustunlik qilsa, og'zaki shakl kundalik ziyolilar muloqotida qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, adabiy til milliy tilning kodlashgan tarmoqi sifatida barcha so'zlashuvchilar uchun yagona va umummajburiy norma bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, u yarim funksional tarmoq bo'lib, badiiy-adabiy til, og'zaki adabiy til va funksional uslublar (ilmiy, rasmiy, publitsistik, diniy) ga bo'linadi. Adabiy tilning ijtimoiy nufuzliligi uning hududiy dialektlar, sotsiolektlar, jargon va argolarga nisbatan ustunligida yaqqol namoyon bo'ladi. Madaniyatning tarkibiy qismi sifatida adabiy tilda milliy tilning barcha vakillari so'zlashishi kerakligi ta'kidlandi. Dialektlarning shakllanishi geografik va ijtimoiy-psixologik sabablarga asoslanganligi tasdiqlangan. Hududiy dialektlar ma'lum hududning o'ziga xos lug'at, grammatik va fonetik xususiyatlarini aks ettirsa, ijtimoiy dialekt (sotsiolekt) muayyan ijtimoiy guruhlarning nutq xususiyatlarini ifodalaydi. V. I. Belikov va L. P. Krisinning ko'rsatishicha, hududiy dialektlarning egasi asosan

⁴ Dadaboev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent, 2004



qishloq aholisining keksa avlod vakillari bo'lib, ularning nutqi oilaviy-maishiy doirada cheklangan. Shu bilan birga, adabiy tilning kuchli ta'siri ostida dialektlarning tenglashtirilishi jarayoni kuzatilmoqda. Sotsiolekt, jargon va argo o'rtasidagi farqlar aniq belgilandi. Sotsiolekt milliy til doirasida ijtimoiy guruh (kasbiy, yosh, tabaqaviy) ga xos lisoniy xususiyatlar majmuidir. Jargon ochiqroq ijtimoiy guruhlar (yoshlar, talabalar, bozorchilar, harbiy xizmatchilar) nutqida qo'llaniladi va ko'pincha metaforik ma'nolarga ega bo'ladi (masalan: *oq* – aroq, *strelka* – uchrashuv, *krutoy* – zo'r). Argo esa yashirin til bo'lib, asosan jamiyatning yopiq va quyi tabaqa vakillari (jinoyatchilar, o'g'rilar, giyohvandlar) tomonidan boshqalar uchun tushunarsiz qilib ishlatiladi (*shmon qilmoq*, *gopstop qilmoq*, *dori*). Yashirinlik darajasi bo'yicha argo jargonlardan keskin farqlanadi.

Yoshlar slengi o'zbek tilida ham faol rivojlanmoqda. U umumiy milliy tilning fonetik va grammatik asosida shakllanib, og'zaki, betakalluf va ba'zan qo'pol xususiyatlarga ega. Semantik jihatdan “inson”, “tashqi ko'rinish”, “kiyim”, “uy” va “bo'sh vaqt” maydonlari ustunlik qiladi. O'zbek tilidagi misollar (talabalar jargoni: *yopmoq*, *vozdux*, *yaxlamoq*; yoshlar jargoni: *g'isht*, *sindirmoq*, *risovka*, *strelka*) bu jarayonni yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbek tili leksikasining ikki katta qatlami – umumiste'mol leksika va iste'mol doirasi chegaralangan leksika (dialektal, terminologik, jargon va argolar) – tilning ijtimoiy stratifikatsiyasini ko'rsatadi. Terminologik leksika ilm-fan va kasb-hunar sohalarida aniq atamalarni ta'minlash, jargon va argolar ijtimoiy guruhlarining ichki kommunikatsiyasini qondiradi

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, lisoniy hamjamiyatning muloqot vositalari – adabiy til, dialekt, sotsiolekt, argo, jargon va jonli so'zlashuv tili – jamiyatda o'ziga xos rol va funksiyaga ega ekanligi aniqlandi. Adabiy til rasmiy va umumqabul qilingan nutq shakli sifatida kommunikatsiyaning barqaror vositasi bo'lib, turli ijtimoiy guruhlar va hududlar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Dialekt hududiy o'ziga xoslikni aks ettiradi va hududiy identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Sotsiolekt ijtimoiy guruhlar ichidagi kommunikatsiyani samarali



qiladi va guruh ichida identifikatsiya vazifasini bajaradi. Argo va jargon guruh ichida maxsus ma'no berish va tezkor muloqotni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, jonli so'zlashuv tili esa tabiiy, erkin va emotsional ifodani ta'minlaydi. Shunday qilib, barcha til shakllari bir-birini to'ldirib, jamiyatda samarali muloqotning tashkil etilishiga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, lisoniy hamjamiyatning til vositalarini chuqur tushunish ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yaxshiroq anglashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Belikov, V. I., Krisin, L. P. Социоллингвистика. – М.: Российский государственный гуманитарный университет (РГГУ), 2001
2. Dadaboev H. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent, 2004.
3. Filin, F. P. Русский язык. Избранные труды. – М.: Наука, 1970
4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Andijon, 2006.
5. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Nurmonov A., Rahimov A. Lingvosinergetikaga kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.
8. Ne'matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning falsafiy masalalari. – Toshkent, 2015.
9. Vinogradov, V. V. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959.